

**ZAMONAVIY QUROLLI TO'QNASHUVLARDA TANK BO'LINMALARNI
QO'LLASH TAJRIBALARI VA XULOSALAR, TANKLARNING
ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (OZARBAYJON-
AMRANISTON VA ROSSIYA-UKRAINA MOJAROLARI MISOLIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11354018>

Ibragimov Abrorbek Maxammadkomilovich

*podpolkovnik, O'R QK Akademiyasi Harbiy san'at kafedrası
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ozarbayjon-Armaniston va Rossiya-Ukraina mojarolari davomida kuzatilgan statistik ma'lumotlar hamda ularning tank bo'linmalarining kelajagiga ko'rsatadigan ta'siri o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar

tank, tank bo'linmalari, taqqoslash jadvallari, Ozarbayjon va Armaniston, Rossiya va Ukraina.

Annotation

This article examines the statistics observed during the Azerbaijani-Armenian and Russian-Ukrainian conflicts and their impact on the future of tank units.

Keywords

tank, tank units, comparison tables, Azerbaijan and Armenia, Russia and Ukraine.

Аннотация

В данной статье рассматриваются статические данные, наблюдаемые во время Азербайджано-Армянского и Российско-Украинского конфликтов, и их значение для будущего танковых частей.

Ключевые слова

танк, танковые части, сравнительные таблицы, Азербайджан и Армения, Россия и Украина.

Zamonaviy qurolli mojarolarning kun sayin avj olib borishi va buning natijasida qurolli harakatlarni olib borish usul va uslublari ham takomillashib borayotgani kuzatilmogda. Bu esa o'z navbatida tanklarning kelajagiga ham ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi albatta. Tanklarning kelajakda istiqbolli rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarga quyidagilarni keltirish o'rinli:

- urushlar harakterining o'zgarishi;
- havodan bo'layotgan tahdidlar;
- rivojlangan texnologiyalarning ta'siri;
- tanklar evolyusiyasi;
- yaqin o'tmishdagi mojarolardan chiqarilgan xulosalar.

Demak, urushlar harakterining o'zgarishi tanklar kelajagiga qanday ta'sir o'tkazadi? Bu savolga bir qator omillarni misol qilib keltirish orqali tushuntirish mumkin, jumladan:


- texnologiya ta'siri – havo hujumi, aniqlik, kiber;
- razvedka, nazorat va rekognosirovka;
- gibrir urushlar;
- qurollarning takomillashuvi;
- axborot urushi.

Shu bilan birga zamonaviy urushlarning asosiy talofat yetkazuvchi vositalari sifatida o'zi nishon izlab topuvchi snaryadlar, Turkiya harbiy sanoati mahsuloti bo'lgan Byraktar TB2 uchuvchisiz uchish apparati, yuqori aniqlikdagi artilleriya va tankka qarshi raketalar, NLAWS va Javelin kabi tankka qarshi vositalarning qo'llanilishi tanklarga jang maydonida bo'lgan xavfning yana bir karra oshirganini ko'rishimiz mumkin.

Tanklar evolyusiyasiga nazar tashlashdan oldin R.Bukminster Fyuller (amerikalik olim, arxitektor, muhandis, dizayner, yozuvchi, 1895-1983yy.)ning: "Siz mavjud narsalar bilan kurashib ularni butunlay yo'q qilib yubora olmaysiz, siz faqatgina uni yo'qotaman deb, uning yangi modelini yaratasiz va bu mavjud narsaning eski modelga aylanishiga olib keladi xolos" degan fikrini keltirish maqsadga muvofiq.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak tanklarning yaratilishi XX asrning ilk o'n yilliga to'g'ri keladi. Birinchi va ikkinchi Jahon urushlari esa tanklarning urush maydonidagi rolini yaqqol namoyon eta oldi.

Urushda qo'llanilgan taktik harakatlarning hususiyatlariga moslashgan holda tanklarning atributlari ham o'zgarib bordi. Jumladan, tankning o't ochishni boshqarish tizimi, boshqariluvchi raketa otish qobiliyatining paydo bo'lishi, tank pushkasining hususiyatlari takomillashuvi, tank manyovrchanligining o'zgarishi, tankdagi zirxli himoyaning ortishi va faol himoya tizimi (*Arena*) yaratilishi, aloqa, boshqaruv va panoramali kuzatish vositalarining takomillashuvi.




1-jadval. Rivojlangan mamlakatlarni tanklar bilan butlashning qiyosiy jadvali

Biroq shu bilan birga bir qator rivojlangan mamlakatlarning qurollanishida turgan tanklar sonining keskin kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Hatto Buyuk Britaniyada mavjud tank bo'linmalarining 2020 yilda tarqatib yuborilgani fikrimizning yana bir yaqqol misoli bo'la oladi (1-chizmada ko'rsatilgan). Ammo Buyuk Britaniyada tank bo'linmalarining tarqatib yuborilishiga yana bir sabab, Buyuk Britaniyaning georafik jihatdan joylashuvidir. Shu tufayli Buyuk Britaniya Qurolli Kuchlarida tank bo'linmalarining o'rnini havo hujumidan mudofaa va harbiy havo kuchlari vositalari bilan butlash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Armaniston-Ozarbayjon mojarosida tanklarning ta'siri. Armaniston-Ozarbayjon mojarosida yaqin o'tmishda sodir bo'lgan va zamonaviy urushlar orasida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu qurolli to'qnashuv qaysidir ma'noda klassik janglarning zamonaviy jang bilan to'qnashuvi bo'ldi. Qurolli mojarolar mobaynida har ikki tomondan bir qator katta miqdordagi resurslar jalb etildi. Armaniston tomonidan 2425 nafar harbiy xizmatchi, 423 nafar fuqaro, 1940 dona hususiy korxonalar, 250 ta harbiy texnika, 270 ta artilleriya vositalari, 18 ta uchuvchisiz uchish apparati, 4 ta S-300 zenit kompleksi qo'llanilgan bo'lsa, Ozarbayjon tomonidan esa 4000 dan ziyod harbiy xizmatchi, 720 nafar fuqaro, 5800 dona hususiy korxonalar, 118 ta harbiy texnika, 4 ta Su-25 bombordimonchi samolyot, 27 ta uchuvchisiz uchish apparati va 36 ta tanklar safarbar etilgan (2-chizmada ko'rsatilgan).

Iqtisodiy jihatdan mamlakatlarning saloxiyati ham ushbu urushda muhim o'rinni egalladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Fikrimizni yanada tushunarli bo'lishi uchun ushbu ma'lumotlarni raqamlarga ko'chirish yetarli asoslarni ta'minlaydi. Ozarbayjon jangovar harakat olib borish uchun \$2,73 trln sarflagan, Turkiyadan Byraktar TB2ni \$233 mln.ga,




2-jadval. Ozarbayjon-Armaniston mojarosida ishtirok etgan harbiy texnika va vositalar

Isroildan Harop LMni \$120 mln.ga sotib olingan. Armaniston esa asosan mudofaa jangigi olib borishga tayyorgarlik ko'rgan. Armaniston jangovar harakatlar olib borishga tayyorgarlik ko'rish davomida \$0,5 trln sarflagan, Rossiyadan S-300ni \$33 mln.ga, Xitoydan K 233ni \$21 mln.ga sotib olingan. Natijada, Armaniston qo'shinlarida katta yo'qotishlarga yuzaga keldi va urushda mag'lubiyatga uchradi.

Rossiya-Ukraina mojarosida tanklarning o'ri. Rossiya qo'shinlari 2022 yil 24 fevral kuni Ukraina hududiga jangovar harakatlar boshlagan vaqtdan, 2023 yil 4 aprelga qadar bo'lib o'tgan harakatlarini qisman tahlil qilib o'tadigan bo'lsak, www.Russiamatters.com/warreport/military-balance rasmiy saytining bergan ma'lumotlarga tayangan holda, Rossiya va Ukraina qo'shinlari mos davrda juda katta yo'qotishlarga uchragan. Jumladan, Rossiya qo'shinlaridan 200 000 nafar harbiylar vafot etgan va og'ir jaroxatlangan, 9425 ta harbiy texnika yo'qotishlariga uchragan (bulardan tank va zirhli texnikalar 5049 ta, harbiy havo texnikalari 152 ta, harbiy dengiz kemalari 12 ta, UUA 134 ta va hkz.). Shu ko'rsatkichlar bo'yicha Ukrainaning yo'qotishlari esa quyidagicha: 130 000 nafar harbiylar vafot etgan va og'ir jaroxatlangan, 3014 ta harbiy texnika yo'qotishlariga uchragan (bulardan tank va zirhli texnikalar 1497 ta, harbiy havo texnikalari 90 ta, harbiy dengiz kemalari 25 ta, UUA 48 ta va hkz.).

Umumiy hisobda Rossiya qo'shinlari tomoni umumiy tanklarining 28% yo'qotishlarga uchragan bo'lsa, Ukraina qo'shinlar tomonidan 39% tanklar yo'qotilganligini kuzatish mumkin. (3-chizmada ko'rsatilgan)



3-chizma. Rossiya va Ukraina qo'shinlarining jangovar harakatlar mobaynidagi yo'qotishlari

Yuqoridagi qurolli to'nashuvlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ayni vaqtga kelib tanklarni zamonaviy jangovar harakatlarda qo'llash mobaynida bir qator muammolar yuzaga kelganini, ulardan zamonaviy texnik vositalar tomonidan ob'ektlarni aniqlash intervalining qariyb 3-5 daqiqagacha qisqarganligi, yashirinish va niqoblanishning murakkablashuvi, havodan uchuvchisiz uchish apparatlari va o'zi nishon izlab topuvchi snaryadlar tomonidan tahdidning ortganligi, yuqori aniqlikdagi artilleriya va tankka qarshi raketalarining keng miqyosda qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin (4-jadvalda keltirilgan).



Manba: Global Firepower

4-jadval. Rossiya va Ukraina mojarosida ishtirok etayotgan resurslar taqqoslash jadvali

Bo'lib o'tgan qurolli to'qnashuvlarda talofat ko'rgan tanklarning qanday talofat ko'rganligi yuzaga kelgan zaif nuqtalarini o'rganish va tahlil qilish natijalarida quyidagilarni ko'rish mumkin. Tank dizayniga etibor qaratadigan bo'lsak, tankda qator zaif nuqtalar mavjudligini ko'ramiz. Tankning old qismida mexanik haydovchi joylashgan qismining to'g'ridan amalga oshirilgan o't ochishlar vaqtida himoyaning sustligi, shuningdek, qanot va yuqoridan bo'ladigan hamlaga nisbatan zaiflik, aksariyat tanklarda yuqori aniqlikdagi o'q-dorilarga qarshi faol himoyaning mavjud emasligi, tankdagi o'q-dorilar saqlanish joylarining portlash markaziga aylanish xavfining mavjudligi, hamda jang maydonida kuzatuvni

amalga oshirishda cheklovlarning mavjudligi shular jumlasidandir (1-rasmda keltirilgan).

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- vaziyatlarning tezkor o'zgaruvchanligiga bog'liq holda tank bo'linmalarni boshqarish borasida takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirish zarurati yuzaga kelmoqda;

- mavjud tanklarni va kelajakdagi tanklarni yaratishda uchuvchisiz uchish apparatlaridan himoya tizimini yaratish, tanklarni endi ko'proq yuqori qismdan zarbalarga bardoshlilikini oshirish zarurati yuzaga kelayotganligini;

- uchish apparatlarining tanitish tizimini takomillashtirish orqali o'z qo'shinlarimizga tegishli vositalarning xavfsizligini ta'minlash lozim;

- jangovar harakatlar teatrda tank bo'linmalarini qo'llash jarayonida jangovar tartibning yoyilishi orqali tanklarning yashovchanligini oshirish mumkin;

- Uchuvchisiz uchish apparatalari orqali olib boriladigan jangovar harakatlar yuqori cho'qqiga chiqayotganligini inobatga olgan holda uchuvchisiz uchish apparatlariga qarshi choralarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda;

- jangovar harakatlarni amalga oshirish davomida inson resurslari orasida yo'qotishlar sonini kamaytirish maqsadida texnikalarning boshqaruv tizimini avtomatlashtirish zarur;

- o'zi nishon izlab topuvchi snaryadlar, yuqori aniqlikdagi artilleriya va tankka qarshi raketalariga qarshi faol himoya tizimini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish lozim;

- shaxsiy tarkibning jangovar vazifalarni bajarish mobaynidagi taktik harakatlardagi amallarini professionallashtirish va o'zaro hamkorlik tadbirlarini amalga oshirishda aloqa tizimini takomillashtirish, hamda yashovchanligini oshirish;

- zamonaviy urushlarning harakterida yuzaga kelayotgan o'zgarishlarni inobatga olgan holda tanklar dizayni o'zgarishlar kiritish;

- rivojlangan mamlakatlar qurollanishida turgan mavjud tank turlarini chuqur o'rganish natijalariga tayangan holda, shaxsiy tarkibning tankdagi joylashuvining maksimal xavfsiz holatiga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. Losik O.A., Brilev O.N. “Имеют ли танки будущее?” М.: Техника и вооружение. 2006 yil № 1.
2. Parfenov E.I. “Боевая машина поддержки танков – новое эффективное огневое средство в современном бою” М.: Стратегическая стабильность. 2010 yil. № 4.
3. Xlyustov M.V. “Танки в современных конфликтах. Обзор применения основных боевых танков за последние 20 лет.” М.: АНО центр стратегических оценок и прогнозов, 2014.
4. Suvorov S. “Танк Т-72: вчера, сегодня, завтра.” М. 2001
5. Suvorov S. “Танки и БМП в бою: опыт современных войн” М.: Современная армия. 18.06.12
6. “Армата” следующие версии. М.: Pro-tank.ru 17.09.12
7. Serdyukov A.E. “Словарь военной энциклопедий” М.: 2007.
8. Baryatinskiy M., Malgunov V. “Танки XXI века” М.: 2012.
9. Dianov F. “Без танков нет победы” М.: Национальная оборона. 2012. № 6.
10. Murahovskiy V., Pavlov M., Safonov B., Solyankin A. “Osnovnoy tank “Leopard 2”. Современные танки” М.: Arsenal-Press, 1995.
11. Stepanov V. “Вся лож танковых рейтингов” М.: Военно-промышленный курьер, 2012, № 29, в. 1, 7.
12. Lukyanov A.V. “Современная бронетанковая техника армий иностранных государств” М.: Rossiya Mudofaa vazirligi, 2010.

Электрон манбалар. URL:

1. Мир танков (<https://warspot.ru/tanki>)
2. Военное обозрение (<https://topwar.ru/>)
3. Армейский сборник (<https://army-news.ru/>)
4. Керамическая броня (<https://armyews.ru/2012/07/keramicheskaya-bronya//commentspost>)
5. Defense News (<https://www.defensenews.com/>)
6. Jane's (<https://www.janes.com/>)
7. Global Security (<https://www.globalsecurity.org/>)
8. Army Technology (<https://www.army-technology.com/>)
9. Tanklar invertatsiyasi - taqqoslash ([https://internasional Institute for strategic Studies](https://internasional.institute-for-strategic-studies.com/)).

10. Tank ulushi ([https:// Russiamatters.com/war report/military-balance](https://Russiamatters.com/war-report/military-balance))
11. Iqtisod va harbiy yordam ([https:// www.statista.com](https://www.statista.com))
12. Harbiy strategiya ([https:// www.Global Firepower.com](https://www.GlobalFirepower.com))